


X. KICHIK TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularni erkin faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit va muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar davomida 2025-yil 1-iyul holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 38 932 tani tashkil qildi. (2024- yil 1- iyulga nisbatan 104,7 % ga ko‘pdir).

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining 2025- yil 1- iyul holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi



■ Sanoat ■ Savdo ■ Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi ■ Qurilish ■ Boshqalar


Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo tarmog‘ida (jami tashkil etilgan subyektlarning 38,1 %), sanoat sohasida (21,6 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (9,1 %) va qurilishda (7,0 %) tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

	2024- yil yanvar-iyun	2025- yil yanvar-iyun
Viloyat bo'yicha jami	2 190	2 007
Namangan shahar	664	585
Mingbuloq	155	175
Kosonsoy	150	158
Namangan	78	96
Norin	124	127
Pop	174	151
To'raqo'rg'on	108	99
Uychi	97	107
Uchqo'rg'on	200	119
Chortoq	136	144
Chust	153	122
Yangiqo'rg'on	151	124

2025-yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Namangan shahrida – 585 ta, Mingbuloq tumanida – 175 ta Kosonsoy tumanida – 158 ta, Pop tumani – 151 ta, Chortoq tumanida – 144 ta, Norin, tumanida – 127 ta, Yangiqo'rg'on, tumanida –124 ta, Chust tumani – 122 ta, Uchqo'rg'on tumanida – 119 ta, Uychi tumani – 107 ta, bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. To'raqo'rg'on, tumanida –99 ta Eng past ko'rsatkich Namangan tumanida –96 tani tashkil etdi.

2025- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2025- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushi Namangan shahrida – 29,1 %, Mingbuloq tumanida – 8,7 % Kosonsoy tumanida -7,9 %, Pop tumanida - 7,5 %, Chortoq tumanida -7,2 %, Norin tumanida – 6,3 %, Yangiqo'rg'on tumanida 6,2 %, Chust tumanida – 6,1 % Uchqo'rg'on tumanida – 5,9 %, Uychi tumanida – 5,3 %, va tashkil etdi.

2025- yil yanvar-iyun oylarida yalpi hududiy mahsulotning 70,2 % (2024- yil yanvar-iyun oylarida 70,1 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan 152,4 mln AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 47,0 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 321,2 mln AQSH dollari (umumiy import hajmining 70,9 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi

(2025- yil yanvar-iyun oylari holatiga, % da)



Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi

(2025- yil yanvar-iyun)

Iqtisodiy faoliyat turlari	Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi, mlrd so'm	Jami hajmga nisbatan ulushi, % da
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	13 369,9	104,2
Sanoat	17 980,3	112,4
Qurilish	9 237,5	110,3
Chakana savdo	10 683,4	107,9
Yuk tashish, mln tonna	15,3	102,9
Yo'lovchi tashish, mln kishi	229,8	102,4

**2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,
(%da)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiyalar
Viloyat bo'yicha jami	51,4	92,6	73,6	84,5
Namangan shahar	61,5	93,7	51,3	92,8
Mingbuloq	27,0	98,5	80,6	94,2
Kosonsoy	38,5	98,4	78,4	90,6
Namangan tuman	82,9	94,3	80,6	39,0
Norin	99,9	98,6	78,3	87,4
Pop	91,1	49,5	70,7	94,8
To'raqo'rg'on	8,3	96,9	74,8	60,4
Uychi	67,3	87,1	78,5	90,1
Uchqo'rg'on	42,5	92,8	77,8	87,7
Chortoq	40,3	98,2	74,9	80,1
Chust	21,0	96,2	74,1	50,5
Yangiqo'rg'on	100,0	96,4	82,0	89,2

Hududlar bo'yicha Sanoat sohasining yuqori ulushini Yangiqo'rg'on, (100,0 %) Norin tumanlari (99,9 %) hamda Pop (91,1 %) Namangan t (82,9 %) tumanlari tashkil etdi.

Qurilishda – Norin t (98,6 %) Mingbuloq (98,5 %), Kosonsoy, (98,4 %) Chortoq (98,2 %) To'raqo'rg'on (96,9 %) tumanlari tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida – Yangiqo'rg'on t (82,0 %), Mingbuloq (80,6 %), Namangan t (80,6 %), Uychi t (78,5 %), tumanlari tashkil etdi.

Investitsiyada – Pop t (94,8 %), Mingbuloq (94,2 %), Kosonsoy, (90,6 %) Uychi t (90,1 %), Yangiqo'rg'on t (89,2 %), tumanlari tashkil etdi.